Pedagogik kasbiy faoliyatda media va axborot savodxonligi

Mavlonov Anvar Uktamovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv va axborotlashuv sharoitida media hamda raqamli texnologiyalarning jamiyat va kasbiy faoliyatdagi o‘rni yoritilgan. Unda pedagogning raqamli texnologiyalardan foydalana olish kompetentligi mazmuni, tarkibiy qismlari (bilim, ko‘nikma, qobiliyat va shaxsiy-axloqiy komponentlar) hamda ularning ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishdagi ahamiyati tahlil etiladi. Shuningdek, raqamli vositalardan samarali foydalanish orqali o‘qitish sifatini oshirish, ta’limni individuallashtirish, baholash va monitoring tizimini takomillashtirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Media, axborot, ommaviy axborot vositalari (OAV), mediamakon, mediata’lim, media savodxonlik, media madaniyat, media kompetensiya, media matn, axborot oqimi, raqamli media, internet va ijtimoiy tarmoqlar, axborot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash, media tahlil, manipulyatsiya, propaganda, soxta axborot (feyk), auditoriya, kommunikatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль средств массовой информации и цифровых технологий в обществе и профессиональной деятельности в контексте глобализации и информатизации. Анализируются содержание, компоненты (знания, навыки, умения и личностно-нравственные составляющие) компетентности учителя в использовании цифровых технологий и их значение для модернизации образовательного процесса. Также обосновываются возможности повышения качества преподавания, индивидуализации образования и совершенствования системы оценки и мониторинга посредством эффективного использования цифровых инструментов.

Ключевые слова: СМИ, информация, средства массовой информации, медиапространство, медиаобразование, медиаграмотность, медиакультура, медиакомпетентность, медиатекст, информационный поток, цифровые медиа, Интернет и социальные сети, информационная безопасность, критическое мышление, анализ СМИ, манипуляция, пропаганда, ложная информация, аудитория, коммуникация.

Abstract: This article discusses the role of media and digital technologies in society and professional activities in the context of globalization and informatization. It analyzes the content, components (knowledge, skills, abilities and personal-moral components) of a teacher's competence in using digital technologies and their importance in modernizing the educational process. It also substantiates the possibilities of improving the quality of teaching, individualizing education, and improving the assessment and monitoring system through the effective use of digital tools.

Keywords: Media, information, mass media (mass media), media space, media education, media literacy, media culture, media competence, media text, information flow, digital media, Internet and social networks, information security, critical thinking, media analysis, manipulation, propaganda, fake information (fake), audience, communication.

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv davrida media jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Axborot almashinuvi tezligi va hajmining ortishi insonlarning dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari hamda qaror qabul qilish jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli media tushunchasini chuqur o‘rganish va uning jamiyatdagi o‘rnini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalardan foydalana olish kompetentligi — bu pedagogning o‘quv-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va raqamli vositalardan samarali, maqsadli va xavfsiz foydalanish qobiliyati hamda mazkur faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalaridir. Ushbu kompetentlik pedagogning kasbiy professional faoliyatida o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish, dars

samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning individual rivojlanishini ta’minlash va zamonaviy ta’lim standartlariga moslashish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalana olish kompetentligi quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1) Bilim komponenti

- raqamli texnologiyalar, ularning turlari va imkoniyatlari to‘g‘risida bilimga ega bo‘lish;
- pedagogik jarayonda foydalaniladigan ta’lim platformalari, elektron darsliklar, interaktiv ta’lim vositalari, test tizimlari va boshqa resurslarni bilish;
- axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va etik qoidalar haqida bilimga ega bo‘lish.

2) Ko‘nikma komponenti

- kompyuter, planshet, smartfon va boshqa qurilmalardan samarali foydalanish;
- ofis dasturlari (matn muharriri, jadval, taqdimot) bilan ishlash;
- ta’lim platformalarida (Learning Management System) dars materiallarini joylashtirish, topshiriqlar berish va baholashni amalga oshirish;
- o‘quv jarayonida interaktiv va multimediya vositalarni qo‘llash.

3) Qobiliyat komponenti

- darsni rejalashtirish va tashkil etishda raqamli vositalarni maqsadga muvofiq tanlash;
- o‘quvchilarning individual o‘rganish yo‘nalishini (differensial yondashuv) raqamli resurslar orqali ta’minlash;
- ta’lim jarayonini tahlil qilish va baholashda raqamli ma’lumotlardan foydalanish;
- ta’lim sifati va samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish.

4) Shaxsiy-axloqiy komponent

- raqamli etikaga rioya qilish, onlayn muloqot madaniyati va axloq qoidalarini bilish;
- internet resurslaridan foydalanishda intellektual mulk huquqini hurmat qilish;
- o‘quvchilarga ham axborot xavfsizligi, internet madaniyati va raqamli mas’uliyatni o‘rgatish.

Pedagogning raqamli texnologiyalardan foydalana olish kompetentligi quyidagi vazifalarni bajarishni ta’minlaydi[2]:

- **ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish**: dars mazmunini zamonaviy axborot resurslari bilan boyitish;
- **o‘qitish sifatini oshirish**: o‘quvchilarning e’tiborini jalb etish, bilimni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish;
- **dars jarayonini individualizatsiya qilish**: har bir o‘quvchining qobiliyati va ehtiyojiga moslashgan o‘qitish usullarini qo‘llash;
- **baholash va monitoringni takomillashtirish**: onlayn testlar, interaktiv vazifalar va avtomatik baholash tizimlari orqali o‘quv natijalarini aniq tahlil qilish;
- **kasbiy rivojlanishni ta’minlash**: yangi raqamli vositalarni o‘zlashtirish va doimiy ravishda malakasini oshirib borish.

Raqamli texnologiyalardan foydalana olish kompetentligi quyidagi mezonlar asosida baholanadi[1]:

- **texnologik savodxonlik**: dasturiy ta’minot va qurilmalar bilan ishlash darajasi;
- **pedagogik innovatsiya**: raqamli vositalarni dars metodikasida qo‘llash darajasi;
- **tashkiliy ko‘nikma**: ta’lim jarayonini raqamli platformalar orqali samarali tashkil eta olish;
- **axborot xavfsizligi**: shaxsiy ma’lumotlar va o‘quvchilarning internet xavfsizligini ta’minlash;
- **tahlil va refleksiya**: o‘qitish natijalarini raqamli ma’lumotlar orqali tahlil qilib, faoliyatini takomillashtirish.

Raqamli texnologiyalardan foydalana olish kompetentligi zamonaviy pedagog kasbiy faoliyatining ajralmas qismidir. U pedagogga ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasini oshirish, individual yondashuvni ta’minlash va ta’lim sifatini yaxshilash

imkonini beradi. Shu sababli pedagoglarning ushbu kompetentligini doimiy ravishda rivojlantirish, malaka oshirish va amaliy tajribada qo‘llash pedagogika sohasida ustuvor vazifa hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatda media (axborot va kommunikatsiya vositalari, ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, audio–video materiallar va boshqalar) dan foydalanish — bu kasbga oid ma’lumotlarni samarali yetkazish, kommunikatsiyani tashkil etish, axborot resurslarini boshqarish hamda professional maqsadlarda jamoatchilik bilan ishlashni ta’minlovchi faoliyatdir. Media vositalarini qo‘llash kasbiy jarayonning sifatini oshirish, axborot tarqatish va kommunikatsiya tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi[4].

Kasbiy faoliyatda mediani qo‘llash talablari — bu media vositalarini tanlash, tayyorlash, foydalanish va baholash jarayonida amal qilinishi zarur bo‘lgan qoidalar, me’yorlar va professional standarti.

Media vositalaridan foydalanish har doim kasbiy maqsadlar bilan bog‘liq bo‘lishi, shaxsiy yoki befoyda axborot tarqatishga yo‘l qo‘yilmasligi lozim. Media materiallari faoliyat maqsadiga mos bo‘lishi; reja asosida tayyorlanishi; aniq vazifani hal qilishga xizmat qilishi; ta’lim, ishlab chiqarish, sog‘liqni saqlash, huquqni muhofaza qilish kabi kasbiy sohalarda belgilangan standartlarga mos bo‘lishi zarur[6].

Media orqali tarqatilayotgan ma’lumotlar faktlar bilan tasdiqlangan bo‘lishi; rasmiy manbalarga asoslangan bo‘lishi; manipulyatsiya va yolg‘on axborot tarqatmaslik tamoyiliga rioya etilishi; professional etikaga mos bo‘lishi lozim.

Kasbiy faoliyatda media vositalari orqali ma’lumot almashinuvi amalga oshirilganda shaxsiy ma’lumotlar, ishchi hujjatlar va maxfiy ma’lumotlar himoyalanishi; ruxsatsiz tarqatish, nusxa olish yoki foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi; axborot xavfsizligi bo‘yicha tashkilotning ichki qoidalariga rioya qilinishi; parollar, shifrlash, himoyalangan platformalardan foydalanish kabi xavfsizlik choralari ko‘rilishi zarur[3].

Media vositalaridan foydalanishda kasbiy etik me’yorlar hurmatli va adolatli tilda muloqot qilish; qarama-qarshi fikrlarni inkor etmaslik va konstruktiv bahs yuritish; diskriminatsiya, nafrat so‘zlari, kamsituvchi mazmun va tajovuzkor nutqdan saqlanish; jamoa ichida hamda jamoatchilik oldida tashkilot obro‘sini himoya qilish.

Media materiallari (foto, video, matn, grafikalar) tayyorlash va tarqatishda mualliflik huquqi va litsenziya shartlariga rioya qilish; manba ko‘rsatish, ruxsat olish, kerak bo‘lsa litsenziya sotib olish; plagiatga yo‘l qo‘ymaslik talab qilinadi.

Media materiallari kasbiy faoliyatda qo‘llanadigan standartlarga mos bo‘lishi lozim. Rasmiy hujjatlar, taqdimotlar, hisobotlar va axborot materiallari belgilangan formatga mos tayyorlanishi; audio va video materiallar sifat jihatdan talabga javob berishi; ma’lumotlar tushunarli, aniq va tartibli berilishi.

Kasbiy media kommunikatsiya turli auditoriyalarning ehtiyojini hisobga olishi (bolalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, chet til bilmaydiganlar va boshqalar); kirishuvchan formatlarda taqdim etilishi (matnning o‘qilishi, subtitr, audio izoh, vizual materiallar); jinsiy, milliy, diniy yoki boshqa belgilar bo‘yicha kamsitmaslik tamoyiliga amal qilishi lozim[5].

Media vositalari orqali amalga oshirilgan faoliyat belgilangan maqsadga erishganmi yoki yo‘qligini tahlil qilish; auditoriya qamrovi, jalb qilish darajasi, axborotning yetib borishi va ta’siri baholanadi; zarur bo‘lganda metodik yoki texnik jihatdan takomillashtiriladi.

Kasbiy faoliyatda mediani qo‘llash talablari — bu professional faoliyatning sifatini oshirish, axborotning to‘g‘riligi va ishonchliligini ta’minlash, shuningdek, axborot xavfsizligi va etik me’yorlarga rioya qilishni kafolatlovchi muhim mezonlardir. Media vositalarini maqsadli, rejalashtirilgan, qonuniy va axloqiy tamoyillarga mos ravishda qo‘llash kasb egasining mas’uliyati bo‘lib, bu jarayon doimiy ravishda takomillashtirib borilishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mavlonov A.U. Gazetalar va uning bo‘lajak o‘qituvchilarning didaktik madaniyatini rivojlantirishda ahamiyati va roli// Zamonaviy jamiyat va innovatsiyalar ilmiy nazariy jurnali 2026-yil, 2-Son. Impact Factor 12.89 / 2025. 216-220-betlar

2. Mavlonov A.U. Jurnal, radio va televideniye rivojida media texnologiyalarning o‘rni// “Ta’lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyot asosida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2026-yil 26-fevral. – Farg‘ona, Farg‘ona viloyati pedagogik mahorati markazi. 61-63-betlar https://doi.org/10.5281/zenodo.19186298

3. Mavlonov A.U. Media texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi roli hamda tasniflanishi// Ta’limda istiqbolli izlanishlar - xalqaro ilmiy-metodik jurnal № 2/2026 ISSN: 3060-527X. 73-76-betlar

4. Mavlonov A.U. Raqamli media va ommaviy axborot vositalari: jamiyatga ta’siri va turlari// Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi ilmiy-amaliy jurnal. № 02-son, 1-qism 2026. ISSN 3030-3710 (P) ISSN 3030-3095 (E). 17-20-betlar

5. Mavlonov A.U. The Impact of Modern Media on Society and Their Classification//(2026). International Journal of Artificial Intelligence, 6(02), pages 914-921. https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/10901

6. Mavlonov A.U. The Role of Newspapers in Developing the Didactic Competence of Future Teachers//(2026). Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations, 5(02), pages 994-998. https://doi.org/10.55640/